



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

_____ hokimligi

_____ maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi

_____ maktabgacha va

_____ maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi

_____ maktabgacha ta'lim tashkiloti

_____ maktabgacha ta'lim tarbiyachisi

_____ ning

“Ilk qadam” dasturi uchun dasturi uchunchi

nashr qilingan

“Yo'l harakatligi”

mayzusida tasvirlangan

FAOLIYAT
ISHLANMA

(Noyabr oyining 3-haftasi)

veb-saytimiz: Zokirjon.com
*Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.*


Zokirjon Admin bilan
91-328-88-38 nomerga telegram orqali
bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567
izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.
Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.

O'rta guruhlariga noyabr oyi 3-hafta faoliyat
ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan
yozing.



Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329
Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.
Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.
Internet veb-saytlarga joylamang.
Telegram orqali kanal va gruppalariga
tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT
QILMANG.

Asosiy faoliyat maqsadlari

Tarbiyachi: - Uning ranglari qanaqa ekan?



Bolalar: - Qizil, sariq, yashil.

Tarbiyachi: - Svetofor qanday shaklda ekan?

Bolalar: - Dumaloq shaklda ekan.

Tarbiyachi: - Svetoforlar avtomobillar tirband va piyodalar gavjum bo'lgan ko'chalarga o'rnatiladi. Svetoforning oldidagi yo'lga chizilgan zebra, ya'ni oq va qora chiziqdan odamlar harakatlanadi. Qizil chiroq yonganda piyodalar to'xtab turadi, sariq yonganda yurishga tayyorlanadi, yashil yonganda esa yurishi mumkin. Avtomobillar ham shu tariqa harakatlanadi. Bolalar ko'chadan o'tayotganda ehtiyot bo'lib o'tish lozim, mashinalar oldini kesib o'tish mumkin emas.



Tarbiyachi: - Bolalar, endi esa sizlar bilan o'yin o'ynaymiz. O'yin davomida svetofor, ikki bola esa yo'lovchi, ikki bola haydovchi vazifasini bajaradi. O'yin qoidasiga amal qilmagan yolovchi va haydovchilar o'yindan chetlashadi.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi esa sizlar bilan birga avvaldan kesib tayyorlangan doira shakllaridan svetofor yasaymiz.

(Bolalar svetofor yasaydilar.)

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi esa sizlarga Jon Chardining svetofor haqidagi she'rini o'qib bermoqchiman.

Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi

«Garaj»

Maqsad: Bolalar o'lchamni aniq oladilar nutqda oldinda, yonida, o'ngda, chapda so'zlarni ishlatadilar

Kerakli jixozlar materiallar: namuna, kubik, lego, o'yinchoq mashinalar.

Faoliyatning borishi:

1. Garaj namunalarini ko'zdan kechirish.
2. Kerakli jihozlarni tanlash.
3. Ijodiy ish.
4. Tayyor g'ulardan foydalanib o'yin tashkil etish.



Qo'shimcha: sayr vaqtida garaj, svetofor va boshqa transport vositalarini tomosha qilish, ularning qanday qurilganligini o'rganish va tushuntirish.

E'tiborga molik jihati: maqsad asosida bajarilgan ishning natijasini baholash va yetkazish.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi

«Shifoxona»

Maqsad: bolalar tibbiyot xodimlarning mehnatlari bilan tanishish, tibbiy yordam mashinasining maxsus transportligi va uning telefon markazini o'rganish.

Kerakli jihoz va materiallar: syujetli rasm, xalat, qalpoqcha, nivo, tibbiy yordam mashinasi.

Faoliyatning borishi:

1. Shifoxona xodimlari faoliyati aks yettirilgan rasmlarni tomosha qilish.
2. Rollarni taqsimlash.
3. Uyinni rejalashtirish.

4. Uyinning borishi.

5. Yakun, muhokama, rag'batlantirish.

Qo'shimcha: badiiy adabiyotlarni o'qish.

E'tiborga molik jihati: yangiliklarga nisbatan bo'lgan qiziqish va intilish, bemorlarga nisbatan g'amxo'rlik hissini, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Til va nutq markazi

Suhbat: O't o'chiruvchilar kasbi». «S»

tovushini to'g'ri talaffuz qilish

Maqsad: o't o'chiruvchi kasbining mashaqqatli kasb ekanligi xaqida tushunchalarga ega bo'ladilar, o'to'chirish mashinasini boshqa mashina turlaridan ajrata oladilar. Rasmi kartochkalarga qarab buyumlarning nomlarida «S» tovushi ishtirok etayotganligini biladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: syujetli rasm, o'yinchoq o't o'chirish mashinasi; «S» tovushi ishtirok etayotgan buyumlar tasvirlangan rasmi kartochkalar.

Faoliyatni o'tkazish

1. Rasmlarni ko'rish.
2. O't o'chirish mashinasi bilan tanishuv (ushlab ko'rish orqali qanday qismlardan tashkil topgan tahlil).
3. Syujetli rasmlaragi o't o'chiruvchilar asosida suhbat.
4. «S» tovushi ishtirok etayotgan buyumlar tasvirlangan suratlarni tomosha qilish, ular ishtirokida gaplar tuzish.

Qo'shimcha: badiiy adabiyotlarni o'qish, hayot xavfsizligi asoslari yuzasidan suhbat. Rasmlar asosida gap tuzish, buyumlarini takllantirish, muloyim so'zlashga o'rgatish.

E'tiborga molik jihati: hayot xavfsizligi asoslarini amal qilish, «S» tovushini to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish.



Fan va tabiat

Qumning xususiyatlari bilan tanishish

Maqsad: bolalar qumning xususiyatlarini biladilar: kuruk, ho'l, nam, sochiluvchan, yopishqoq, namligida rangi o'zgaradi.

Kerakli jihoz va materiallar: qum to'ldirilgan o'yinchoq yuk mashinasi, kuruq va nam qumlar solingan tog'oracha, suv solingan tog'ora, bolalar chelagi, fartuk, salfetka va lupalar.

Faoliyatning borishi:

1. «Qumni tahlil qilish». Lupa yordamida

qumning tarkibini diqqat bilan kuzating (juda kichik qum donachalaridan iborat).

Qum donachalari qanday shaklga ega? Ular juda kichkina, dumaloq, yarim shaffof (yoki qumning turiga qarab oq, sariq va boshqa ranglarda). Qum zarralari bir-biriga o'xshaydimi? Nimasi o'xshaydi, qaysi jihatlari farqlanadi? Qum zarrachalarining har biri alohida boshqa «qo'shni»lariga

yopishmaydi.

2. «Targ'iblash». Qum oling va ularni katta lotokka to'kib, qum zarrachalarini lupa yordamida kuzating. Shunda ularning xar-xilligiga ishonch hosil bo'ladi. Ular romb shaklida bo'ladi. Bunday qumlarni qo'lingizga olib, ularning qo'qqol bilinadi.

3. Qum bilan amaliy tajriba o'tkazilgan stakanga ehtiyotkorlik bilan ozroq suv quyamiz.



Qumga teginamiz. U qanday holatga keladi?

Ho'l va nam bo'ldi. Suvimiz qayoqqa ketdi? Suv qumning tarkibiga singdi va «qulay joylashib oldi». Tayoqchamizni ho'l qumga o'rnatishga harakat qilamiz. Sizningcha tayoqchamiz nam yoki kuruq qumdan qay biriga oson o'rnatiladi?

So'ngra tuproq solingan stakanga ozroq suv quyamiz. Stakanda suvning tez yoki sekin so'rilish tezligini kuzatamiz. Albatta bu jarayon qumdagiga nisbatan bir necha barobar sekin kyyechadi. Bundan tashqari, suvning bir qismi tuproqning yuzasida shimilmasdan qolib ketadi. Amalga oshirilayotgan amaliy tajribaning ta'siri hamda oshkoraligini ta'minlash maqsadida har ikkala stakanga suv solish hamda suvning singish jarayonlarini bir vaqtning o'zida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun ham turli daraxt ko'chatlari va boshqa mahsulotlarni ekishdan oldin dehqonlarimiz erlarni sug'orishlari urug' qadash va uning o'sib chiqishida muhim jarayonlarni bolalar bilib olishadilar.

4. «Ho'l qumning xususiyatlari». qumni kaftimizga olganimizda barmoqlarimizni orasidan oqib tushib ketadi, quriguncha istilgan shaklga keltirish mumkin. Qum suvga tekkanida ulardan ko'progi havo chiqib ketadi va qum zarralari o'zaro yopishqoqlik xususiyatini namoyon qiladi.





Qo'shimcha: qum va tuproqni taqqoslash.

E'tiborga molik jihati: amaliy tajriba» qatnashish istagining mavjudligi, bolaning qiziquvchanligi.

San'at markazi

Rasm: Transport turlari

Maqsad: bolalarda transport va uning turlari to'g'risidagi tasavvurlar shakllanadi; kotur bo'ylab chiqish usullari rivojlanadi, qalam va mo'yqalamni to'g'ri tutgan holda vertikal va horizontal holatda shtrixlay oladilar.

Kerakli jihozlari: namuna, rangli qalam, oq va rangli qog'oz, transportlar tasviri, transport rasmli.

Faoliyatning bosqichlari:

1. Namunani tomosh qilish.
2. Kerakli jihozlarni tanib olish.
3. Ijodiy ishni rejalashtirish.
4. Ijodiy ish.
5. Bolalar ishlari ko'rgazmasi.

Qo'shimcha: turli predmetlar yordamida ishni bajarish.

E'tiborga molik jihati: rasmda predmetlarning shakl va jihatlarini yaqqol tasvirlay olish.

